

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ \_\_\_\_\_  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2005 y.

**«TASDIQLANDI»**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

\_\_\_\_\_  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2003 y.

**«MUTAXASSISLIKKA KIRISH»  
fanidan namunaviy o'quv  
DASTURI**

**Toshkent-2005**

**Tuzuvchilar:** 1. Sobirjonova D.  
2. Boymatova U.

**Taqrizchilar:** prof. Zaynutdinov Sh.  
dots. To‘laganova Sh.

Mazkur o‘quv dasturi mutaxassislikka kirish «Menejment» yo‘nalishidagi Oliy o‘quv yurtlarining 1-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda menejment asoslari, menejment madaniyati, menejer faoliyatini tashkil etish, marketingni boshqarish, innovatsion menejment, tadbirkorlikni boshqarish asoslari, xodimlarni boshqarish asoslari, ishlab chiqarish menejmenti masalalari ko‘rib chiqiladi. Bu esa, mutaxassislikka kirish «Menejment» yo‘nalishidagi bakalavriatlar uchun professional bilimga ega bo‘lgan hozirgi zamon mutaxassislari sifatida shakllanishiga qaratilgan.

Настоящая учебная программа «Введение в специальность» по направлению «Менеджмент» предназначена для студентов 1-го курса Высшего учебного заведения. В ней рассматривается следующие направление: основы менеджмента, культура менеджера, организация деятельность менеджера, основы управления персоналам, менеджмент производства. Все это дает возможность будущих специалистов бакалавров овладеть современными знаниями.

The present educational program «Introduction in a speciality» on a direction "Management" intends for the students of 1-st rate of a higher Educational institution. In it(her) the direction is considered(examined) the following: bases of management, culture of the manager, organization activity of the manager, basis of management to the personnel's, management of manufacture. All this enables of the future experts of the bachelors to take possession of modern knowledge.

TMI qoshidagi oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy kengashda muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan (2005 yil 7 iyul 4-sonli bayonnoma)

## 1. SO'Z BOSHI

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturida qo'yilgan asosiy vazifalaridan biri jaxon andozalariga mos keladigan o'quv dasturlarni tayyorlashdan iboratdir. Shu o'rinda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlari o'rinlidir deb bilamiz "Bugungi kunning eng muhim vazifasi, hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda, respublika miqyosida, viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq va bo'g'inlarni idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon, odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir."

Bildirilgan oqilona fikrlardan kelib chiqib, mutaxassislikka kirish "Menejment" yo'nalishi uchun milliy kadrlar tayyorlash zamon talabi ekanligiga katta ahamiyat berilmog'i lozim. chunki, har bir rahbar o'z ishining mutaxassisi bo'lishi, ishonchli odamlarni atrofiga to'play olishligi, xodimlarni rag'batlantira olishligi, o'z qo'li ostida ishlaydigan xodimlarga iliq munosabatda bo'lishligi lozim. Buning uchun menejerlik ilmini puxta egallab, ishlab chiqarishni malakali boshqarishga erishmog'imiz lozim.

Ushbu fanning maqsadi talbalarda menejment muammolariga qiziqish uyg'otish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq tug'dirishdir. Shu bilan birga, menejer bo'lib etishishlarida tanlovni to'g'ri amlga oshirishni va ishchan qarorni qabul qilishni o'rganish, hamda bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlaydigan yuqori malakali menejerlarni tayyorlashdan iboratdir.

Mazkur fanni o'rgatish vazifalari:

- talabaga bu fanni o'rgatib boshqarishni tashkil etish va uning asoslarini o'rgatish;
- qarorlarni to'g'ri qabul qilishga doir nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi menejmentning ilmiy nazariyalari asosida Respublikadagi ichki va tashqi bozor faoliyatini boshqarish tizimini xususiyatlarini o'rgatish;
- Menejment uslublaridan foydalanib boshqaruv faoliyatini tartibga solish;
- Idoraviy ish yuritish tili va uslubini o'rgatish.

O'qitiladigan kurs "Menejment" yo'nalishiga tegishli bo'lganligi uchun, u albatta ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial, huquqiy, axborot texnologiyasi fanlari bilan aloqadordir. Ayniqsa, "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bilan yaqindan bog'liqdir. Bir qator iqtisodiy fanlar: "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Istiqbolni belgilash", "Mehnat iqtisodiyoti" kabilar ham chambarchas bog'liqdir.

### **Fanni o'qitish bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va mahoratlariga qo'yiladigan talablar**

Mutaxassislikka kirish "Menejment" yo'nalishi bo'yicha talablar uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- talabalar kursni o'rganish jarayonida har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan miqdordagi reyting ballarini to'plashlari, kursning "tayanch" iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollar asosida o'z bilimlarini sinab borishlari lozim;
- o'qitish jarayonining joriy, oraliq va yakuniy baholash (nazorat) xaftalarida yozma nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ta'lim mavzularini o'qituvchi yordamida

o'rganishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, kursga oid chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari lozim.

### **Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar**

Seminar mashg'uloti mavzulari namunaviy dastur asosida belgilanib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan birga alohida uslubiy qo'llanma shaklida ko'paytiriladi. Seminar mavzusi rejadagi savollar dastur doirasida tuzilib, ma'ruzada bayon qilinadigan masalalar bilan mazmunan bir xil bo'lsada, shaklan ularni takrorlamaydi.

### **Fan bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmi**

Oliy ta'limning standartlarida mazkur kursga 40, shu jumladan 18-ma'ruza, 9-amaliy mashg'ulot 13-mustaqil ta'lim soatlarga ajratilgan.

### **Talabalar bilimni aniqlash uchun o'tkaziladigan tadbirlar miqdori**

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish, amalda qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish, amalda qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish, bilish aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik, bilmaslik.

Talabaning fan bo'yicha baholash turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «fandan olingan baho» ustuniga esa, talabaning amaldagi Nizomning 9-bandiga muvofiq 100 ballik tizimdagi o'zlashtirilishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

**«Mutaxassislikka kirish» fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	Joriy baholashdagi maksimal ball	Oraliq baholashdagi maksimal ball			Yakuniy baholashdagi maksimal ball
		Jami	1-O.B.	2-O.B.	Jami	
1.	Darsga qatnashganlik darajasi	2,0	X	X	X	X
2.	Dars jarayonidagi faolligi, ma'ruza bo'yicha konspekt yuritishi	4,0	2,5	2,5	5,0	X
3.	Fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni konspekt qilish	4,0	2,0	2,0	4,0	X
4.	Seminar darslarida faolligi	8,0	4,0	4,0	8,0	X
5.	Dolzarb mavzulardan referat tayyorlash	2,0	2,0	2,0	4,0	X
6.	Ilmiy seminarlar, viktorina va konferentsiyalarda ilmiy ma'ruza (tezis)lar bilan qatnashish	5,0	2,0	2,0	4,0	X
7.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarini sifatli bajarish	4,0	2,0	2,0	4,0	X
8.	Mavzular bo'yicha slaydlar va ko'rgazmali materiallar tayyorlash	4,0	2,0	2,0	4,0	X
9.	Fan bo'yicha ish o'yinlarini tashkil etish	2,0	1,0	1,5	2,5	X
10.	Ilmiy maqolalar tayyorlash va nashr etish	4,0	2,0	2,0	4,0	X
11.	Fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishdagi ishtiroki	4,0	1,5	1,5	3,0	X
12.	Yakuniy baholash (yozma ish, og'zaki yoki test sinovlari)da bergan javobi	X	X	X	X	15,0
	<b>Jami</b>	<b>43,0</b>	<b>21,0</b>	<b>21,0</b>	<b>42,0</b>	<b>15,0</b>

**Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

Mazkur kursni o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- kursni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- ma'ruza matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni tayyorlab, guruh talabalariga etkazish;
- test savollarini tuzish va ularga javob berish shaklida joriy, oraliq baholash (nazorat)larni uyushtirish;
- "tayanch" iboralarni ishlab chiqib, ularning talabalar tomonidan mukammal o'zlashtirishini ta'minlash;

- masofaviy o'qitishni tashkil etish kabi kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- talabalarga xorijiy universitetlar professorlari tomonidan yozilgan ayrim ma'ruzalarni o'qib, teleekran orqali namoyish etish va boshqalar.

#### **INTERNET tarmog'ida mavjud bo'lgan fanga taalluqli saytlar ro'yxati:**

1. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)
2. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
3. <http://can.naytov.com>
4. [www.plekhanov.ru](http://www.plekhanov.ru)
5. [www.litera.uz](http://www.litera.uz)

#### **Fan bo'yicha ishchi dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Mutaxassislikka kirish "Menejment" kursi kunduzgi bo'lim yo'nalishining 1-kursida o'quv yilining ikkinchi yarim yilligida o'qitilib, joriy, oraliq baholar (nazorat) orqali boshqarlib o'quv jarayonini ohirida sinov bilan tugallanadi.

Talabalar ma'ruza darslarida, amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini oshiradilar. Ularning olgan bilim va ko'nikmalari keyingi kurslarda o'tiladigan boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun asos bo'ladi.

Fanni o'rganishda quyidagilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiy masalalar, jumladan bozor faoliyatiga oid ko'rsatmalar, takliflarni tegishli mavzularda ishlatish;
- respublikamiz Vazirliklari tomonidan chiqarilgan bozor faoliyatiga taalluqli qo'llanmalar, namunalarni darslarda o'tish, hamda har bir mavzu bo'yicha jadvallar va chizmalar tayyorlab, ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish.

## 2. FAN DASTURI

### 1-mavzu. Menejment fanining predmeti, metodlari va ob'ekti

Menejment fanining tushunchalari. *Menejment predmeti*. Uning ob'ekti va sub'ekti. *Menejment fanining metodlari*: sistemali, kompleksli, tarkibli, vaziyat (situatsiya)li, integratsion va iqtisodiy, matematik yondashuvlar. Menejment fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. *Menejment insonlarni boshqarish ilmi*. Menejmentni asosiy maqsadlarini bilish.

*Boshqarish ta'limotida to'rt yo'nalish* (maktab): ilmiy menejment (F.Teylor, G.Emerson va boshqalar); mumtoz yoki ma'muriy menejment (A.Fayol, M.Veber va boshqa.); "inson munosabatlari" maktabi (E.Meyo, R.Laykert va boshqa.); miqdoriy, tizimli yoki zamonaviy menejment (G.Saymon, P.Duruker, E.Deyl va boshqa.).

*Menejmentning qonun-qoidalari va tamoyillari*. A.Temurning davlatni boshqarishdagi o'ziga xos xususiyati. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishdagi besh tamoyili.

### 2-mavzu. Menejer xususiyatlari

Menejer vazifalari va uning xususiyatlari. *Menejer va uning toifalari - yuqori, o'rta, va quyi pog'onadagi menejerlar*. Menejer xizmatiga bo'lgan talab. Menejer ijtimoiy toifa. Menejning murakkab, mas'uliyatli, yuqori javobgarlik darajasidagi vazifalari. Zamonaviy menejer funktsiyalari va ularga qo'yiladigan talablar.

### 3-mavzu. Boshqaruv funktsiyalari

*Boshqarish funktsiyalarining turlari: umumiy va aniq funktsiyalar; hududiy va tarmoq funktsiyalar; rahbar va ijrochilik funktsiyalari*. Asosiy funktsiyalar: rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish va tartibga solish. Boshqaruvda rejalashtirishning ahamiyati, roli va vazifalari. Rejalashtirish va uning samaradorligi. Biznes reja.

### 4-mavzu. Rahbarning fazilatlari va uslublari

Rahbarning ish uslubi. *Rahbarning fazilatlariga qo'yiladigan talablar*. Rahbarlik uslubi, boshqarish metodlari. Boshqarishning iqtisodiy metodi. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy metodlari.

Rahbarlik turlari: avtokratik, liberal, va demokratik rahbar. Rahbarlik turlarining o'ziga xos xususiyatlari. *Avtokratik - liberallik koeffitsienti*.

### 5-mavzu. Menejer madaniyati

Inson madaniyati tushunchasi. *Menejment madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi*. Menejment madaniyati darajasi va uni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar. Axloqiy me'yorlar. Menejment uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik, estetik talab me'yorlari. Menejment madaniyatining asosiy elementlari. Menejer yuksak darajadagi madaniyat sohibi. Boshqaruv xodimlarining madaniyati. Boshqarish jarayonlarini tashkil etish madaniyati. *Xujjatlarni yuritish menejment madaniyatining ajralmas qismi*. *Boshqaruv madaniyatini takomillashtirish*.

### 6-mavzu. Boshqarish maqsadlari

Boshqarish maqsadi va unga qo'yiladigan asosiy talablar. Maqsadning turlari. Joriy va istiqboldagi maqsadlar. Uzluksiz va fursatli maqsadlar. Muammoli va innovatsion maqsadlar. *Yakka maqsadlar va ularga qo'yiladigan talablar*. Maqsad sifatleri. "Maqsadlar shajarasi".

## 7-mavzu. Boshqaruv samaradorligi

Samara va samaradorlik. *Boshqaruv mehnati, boshqaruv funktsiyalari samaradorligi*: qaror qabul qilish, rejalashtirish, tashkil qilish, motivlashtirish, nazorat qilish samaradorligi. *Boshqaruv samaradorligini tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar*: miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligining oshishi evaziga tejalgan boshqaruv harajatlari. Boshqaruv hodimlarining mehnat unumdorligi. Mahsulot harajatlari. Unumsiz ish vaqtining kamayishi va unumsiz boshqaruv harajatlarining pasayishi.

**Izoh:** Mustaqil ta'lim majmuasiga kiritilgan mavzular *kursivda* berilgan.



### **3. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI**

#### **1-mavzu. Menejment fanining predmeti, metodlari va ob‘ekti**

Menejment tushunchasi. Menejment insonlarni boshqarish ilmi. Menejmentni asosiy maqsadlarini bilish.

\*Menejment ob‘ekti va sub‘ekti. Boshqarish ta‘limotida to‘rt yo‘nalish (maktab).

Menejmentning qonun-qoidalari va tamoyillari. A.Temurning davlatni boshqarishdagi o‘ziga xos xususiyati. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishdagi besh tamoyili.

#### **2-mavzu. Menejer xususiyatlari**

Menejer vazifalari. Menejer va uning toifalari - yuqori, o‘rta, va quyi pog‘onadagi menejerlar. Menejer xizmatiga bo‘lgan talab. \*Menejer ijtimoiy toifa. Menejering murakkab, mas‘uliyatli, yuqori javobgarlik darajasidagi vazifalari.

\*Zamonaviy menejer funktsiyalari va ularga qo‘yiladigan talablar. Menejerlar toifalariga qarab qo‘yiladigan talablar.

#### **3-mavzu. Boshqaruv funktsiyalari**

\*Boshqarish funktsiyalari, ularning turlari. Asosiy funktsiyalar: rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish va tartibga solish. Boshqaruvda rejalashtirishning ahamiyati, roli va vazifalari.

\*Rejalashtirish va uning samaradorligi. Biznes reja.

#### **4-mavzu. Rahbarning fazilatlari va uslublari (2 soat)**

Rahbar fazilatlari: singvinik, flegmatik, xolerik, melanxolik. Rahbarlik uslubini tanlash. Rahbarlik turlari: avtokratik, liberal va demokratik rahbar. Rahbarlik turlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

\*Rahbarga qo‘yiladigan talablar: ma‘naviy etuklik, bilim darajasi, intizom va mehnatga munosabati, tashkilotchilik qobiliyati, boshqarish samaradorligini ta‘minlay olish. Rahbarning sifat xislatlari.

#### **5-mavzu. Menejer madaniyati**

Menejer madaniyati tushunchasi. Menejment madaniyati darajasi va uni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar. \*Axloqiy me‘yorlar. Menejment uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik, estetik talab me‘yorlari. \*Menejment madaniyatining asosiy elementlari. Menejer yuksak darajadagi madaniyat sohibi. Boshqaruv xodimlarining madaniyati. Boshqarish jarayonlarini tashkil etish madaniyati. Xujjatlarni yuritish menejment madaniyatining ajralmas qismi. Boshqaruv madaniyatini takomillashtirish.

#### **6-mavzu. Boshqarish maqsadlari**

Menejer faoliyatini aniqlash. \*Boshqarish maqsadi va unga qo‘yiladigan asosiy talablar. Maqsadning turlari. \*Joriy va istiqboldagi maqsadlar. Uzluksiz va fursatli maqsadlar. Muammoli va innovatsion maqsadlar. Yakka maqsadlar va ularga qo‘yiladigan talablar. Maqsad sifatleri. “Maqsadlar shajarasi”.

## **7-mavzu. Boshqaruv samaradorligi**

\*Boshqaruv samaradorligi nima? Samaradorlikni boshqarish zarurati.

Boshqaruv mehnati, boshqaruv funksiyalari samaradorligi: qaror qabul qilish, rejalashtirish, tashkil qilish, motivlashtirish, nazorat qilish samaradorligi. Mehnat unumdorligining oshishi evaziga tejalgan boshqaruv harajatlari. Boshqaruv hodimlarining mehnat unumdorligi. \*Mahsulot harajatlari. Unumsiz ish vaqtining kamayishi va unumsiz boshqaruv harajatlarning pasayishi.

**Izoh:** Talaba chuqur o'zlashtirishi shart bo'lgan mavzular \* bilan belgilangan.

## **4. FAN BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM MUAJMUASINI ISHLAB CHIQISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR**

### **4.1. Mustaqil ta'limni bajarish shakl va turlari**

1.	Maqola	5
2.	Referat	4
3.	Test savollari	2
4.	Prezentatsiyalar	3
5.	Masalalar tuzish	1/1
6.	Statistik ma'lumotlar	1
7.	Fanga taalluqli innovatsiyalar	2
8.	Yangi adabiyotlar haqida ma'lumot	2
9.	Slaydlar	4
	<b>JAMI</b>	<b>24</b>

## **5. DASTURDAGI MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FAILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR**

### **1. Ko'rgazma-namoyish materiallari**

Menejer madaniyati.  
Menejer faoliyatini tashkil etish.  
Marketingni boshqarish.  
Xodimlarni boshqarish asoslari.  
Ish yuritishni boshqarish.  
Innovatsion menejment.  
Tadbirkorlikni boshqarish asoslari.  
Ishlab chiqarishni boshqarish.

## 6. FAN BO'YICHA TALABALAR REYTINGINI ANIQLASH MEZONLARI

maksimal ball – 100 ball.

saralash balli – 55 ball.

Shu jumladan:

joriy baholash – 57 ball.

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darsidagi faolligi, ilmiy referat tayyorlaganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k) bajarganligi uchun uzluksiz ravishda qo'yib boriladi.

oraliq baholash – 28 ball.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib ularga tegishli ball ajratiladi.

yakuniy baholash – 15 ballgacha.

Yakuniy baholash talabaga o'tilgan mavzular yuzasidan 3 ta savol berilib, og'zaki javob ravishda o'tkaziladi.

Nazoratning har bir turlarining 55 foizdan ortig'ini to'plagan talabaning bilimi ijobiy baholanadi. Baho turlarining umumiy ballidagi foizli ulushi quyidagi tartibda belgilanadi:

“5” (a'lo) 86-100 ball.

“4” (yaxshi) 71-85 ball.

“3” (qoniqarli) 56-70 ball.

## 7. ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat-1" T. "O'zbekiston", 1996 y. 15, 243, 245, 252 betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. "O'zbekiston", 1998 y. 268, 297 betlar.
3. Karimov I.A. "Jamiyatda tadbirkorlikni ruhini qaror toptirish taraqqiyot garovi". T. «Xalq so'zi» gaz. 2001 y. 18 iyul.
4. Qosimov G'. Zamonaviy korxonalar faoliyatini boshqarish. J. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №1, 2000 y.
5. Zaynitdinov Sh.N. va boshqalar. Menejment asoslari. T. 2001 y. 48-52.
6. Sharifxo'jaev M.Sh., Abdullaev Yo.A. "Menejment", T. 2000 y. 3-20, 40-60 betlar.
7. G'ulomov S.S. "Menejment asoslari". T. 2002 y. 12-25, 68-71, 107-123, 170-182, 326-337, 347-362 betlar.
8. Islohotlar strategiyasi-mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan ma'ruzasi. 2003 y. 17 fevral.
9. Blegnov A.O., Vasilevskaya O.V. «Iskusstvo upravleniya personalom». Uchebnoe posobie. – M.: GELAN, 2001 g. 7-15 str.
10. B.P.Ivchenko, L.A.Marishchenko, M.E.Tabuxov «Upravlenie v ekonomichnix i sotsialnix sistemax». Sistemniy analiz. Prinyatie resheniy v usloviyax neopredelennosti. - SPb. «Nordmed-Izdat». 2001 g. 20-28, 32-34, 40-42 betlar.
11. Dadaboev Yu.T., Kucharov A.S. «Teoriya upravleniya». Uchebник. - T. 2002 g. 50-60 betlar.
12. Abduganiev I.X., Mavlani Sh.M. «Upravlencheskoe reshenie: progress ix podgotovki, prinyatiya i realizatsii». Uchebnoe posobie. - T.: TsPIUL, 2002 g. 42-56, 70-73, 101-110 str.
13. Svetlana Ivanova «Isskustvo podbora personala». Izd-vo Alpina Biznes buns. 2003 g. 50-70, 120-132, 205-240 str.
14. Barbara Minta «Pravila magicheskoy piramidi dlya delovogo pisma» Izd-vo Rosmen-Press. 2004 g. 43-51, 72-85, 120-123 str.
15. Alina R. «Kurs MVA po menedjmentu». Izd-vo Alpina Biznes buns. 2004 g. 35-46, 75-88 str.
16. Konstantin Barovoy «Dvenadsat top». Izd-vo Vagrius. 2004 g. 14-21, 56-85 str.
17. Bern Anderson «Biznes – protsessi instrumenti sovershenstvovaniya». Izd-vo Standarti i kachestvo. 2004 g. 75-87, 112-125 str.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

18. Meskon M., Albert M., Xidouri F. "Osnovi menedjmenta". M.:1995 y.
19. Maksimov M.M. i dr. "Menedjment". Uchebник. M.: YuNITI 1998 g.
20. Mixaylov B.F. "Metodi upravleniya personalom". M.: 1995 g.
21. Murakaev I.U., Saifnazarov I.S. "Menejment asoslari". O'quv qo'llanma. T.: 1998 y.
22. "Menedjment organizatsii" M.: INFRA-M. 1997 g.
23. Odegov Yu.G., Nikinova T.V., Bizdelov D.A. "Upravlenie personalom banka". M.: REA-im. Plexanova. 1996 g.
24. Odegov Yu.G., Juravlev P.V. "Upravlenie personalom".Uchebник. M.:«Finstatinform».1997g.
25. V.I.Knorring, S.S.G'ulomov «Menejment: boshqaruv san'ati, nazariyasi va amaliyoti». - T.: TDAU, 2002 y. 318 bet, 100 ekz.
26. Murakaev I.U., To'laganova D.S. «Menejment fanidan praktikum». (O'quv-uslubiy qo'llanma). - T.: «Fan», 2002 y. Dadaboev Yu.T., Xodjaeva S., Yakubova Z.Yu. «Psixologiya menedjmenta». Uchebnoe posobie. - T. 2002 g.